# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra*
*(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*



*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko‘plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko‘plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko‘maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko‘rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko‘rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*

*Korxona va tashkilotlar to‘g‘risidagi mazkur ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma’lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.*

# Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)*

| | | |
|---|---|---|
| Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar | 26 711 | 106,8 % |
| Faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar | 25 488 | 106,4 % |
| Yangi tashkil etilgan korxonalar (2022- yil yanvar-avgust oylarida) | 2 754 | 87,6 % |

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. O‘z o‘rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o‘z shaxsiy biznesini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda va o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati bilan)*



# Faoliyat ko‘rsatayotgan tijorat korxonalari soni

*(tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha*
*2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)*

**16 038**
Mas’uliyati cheklangan jamiyat

**2 069**
Oilaviy korxona

**105**
Unitar korxona

**3 069**
Xususiy korxona

**24**
Aksiyadorlik jamiyati

**479**
Boshqa korxonalar

## Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)*



# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022- yil yanvar-avgust oylarida)*




## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

*( yanvar- avgust oylarida, birlikda)*



# Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida faoliyat koʻrsatayotgan korxona va tashkilotlar

*(1- sentabr holatiga koʻra, birlikda)*



**Jami faoliyat koʻrsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 9,2 foizga oshdi**
















# Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)*



*Jami faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxona va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan* ***5,5*** *foizga oshdi*









**187**



Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**3 143**



Ishlab chiqarish sanoati

**33**



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

**71**



Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 3 434 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 5,5 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko‘payishining asosiy omili (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida 5,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 91,5 %), suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 26,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,1 %) o‘sishi kuzatildi elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash 78,6 % ni (jami sanoatdagi ulushi 1,0 %) tashkil etgan va tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 98,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,4 %) tashkil etdi.

# Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)*





***Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 0,1 foizga oshdi***




***Kichik tadbirkorlik subyektlari soni***






***Mikrofirmalar***




***Kichik korxonalar***




## Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni, yillar kesimida




2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2 479 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,1 % ga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko‘payishining asosiy omili bu - bino va inshoatlar qurishda - o‘tgan yilga nisbatan 97,6 % ni (jami qurilishdagi ulushi 58,9 %), fuqarolik obyektlarini qurish - 39,5 % ni (jami qurilishdagi ulushi 13,7 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 92,1 % ni (jami qurilishdagi ulushi 27,4 %) tashkil etdi.

# Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)*



***Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 11,2 foizga oshdi***




### *Kichik tadbirkorlik subyektlari soni*



***11,2***
***foizga oshdi***




### *Mikrofirmalar*




### *Kichik korxonalar*




## Savdo sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, yillar kesimida

*(1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)*

2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 6 994 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 11,2 % ga oshdi.

Jami savdo korxona va tashkilotlari soni ko‘payishining asosiy omili - avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o‘tgan yilga nisbatan 8,6 % ga (jami savdodagi ulushi 69,2 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o‘tgan yilga nisbatan 16,7 % ga (jami savdodagi ulushi 22,1 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o‘tgan yilga nisbatan 18,8 % ga (jami savdodagi ulushi 8,7 %) o‘sishidir.



# Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)*

- **Sog‘liqni saqlash sohasidagi faoliyat**

**424**

- **Yashash uchun joy bilan ta’minlangan holda parvarishlash**

**28**

- **Yashash uchun joy bilan ta’minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish**

**10**

## Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni



*Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **10,3** foizga oshdi*




*Kichik tadbirkorlik subyektlari soni*



***8,6*** *foizga oshdi*




*Mikrofirmalar*




*Kichik korxonalar*



# Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)*




*Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan* ***2,2*** *foizga oshdi*




***Kichik tadbirkorlik subyektlari soni***



***2,2***
*foizga oshdi*




***Mikrofirmalar***




***Kichik korxonalar***




## Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)*




**98**
yashash bo‘yicha xizmatlar



**1 315**
Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar

2022-yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1 425 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko‘payishining asosiy omili - oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar 1,7 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,3 %) o‘sgan va yashash bo‘yicha xizmatlarning 96,1 % ni (jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,9 %) tashkil qiladi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

*(2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)*

**22 863** ro‘yxatdan o‘tgan
- **1 100** kichik korxonalar
- **21 763** mikrofirmalar

**21 701** faoliyat ko‘rsatayotgan
- **1 090** kichik korxonalar
- **20 611** mikrofirmalar

**2 650** yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan
- **73** kichik korxonalar
- **2 577** mikrofirmalar

## Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

*(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)*



# Oilaviy korxonalar soni

*(1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)*




Tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- sentabr holatiga ko‘ra 2 231 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 290 ga yoki 14,9 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 069 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 215 ga yoki 11,6 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2022- yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 247 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 72,4 % ni tashkil etgan.

## Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni

*(1-sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)*

Tashkiliy huquqiy shakli bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- sentabr holatiga ko‘ra 16 820 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1 480 ga yoki 9,6 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 16 038 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1 373 taga yoki 9,4 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2022- yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 995 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 82,5 % ni tashkil etgan.



# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni

*(2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)*






## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

***(2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)***




Ro‘yxatdan o‘tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra 182 tani tashkil etib, ulardan 181 tasi yoki 99,4 % faoliyat ko‘rsatmoqda.

2022- yilning yanvar-avgust oylarida 9 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

*(1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)*



# Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar soni

*(2022- yil 1- sentabr holatiga koʻra, birlikda)*



| | Jami | shundan: | |
|---|---|---|---|
| | | qoʻshma korxona | xorijiy korxona |
| **Qoraqalpogʻiston Respublikasi** | **181** | **104** | **77** |
| ***tumanlar:*** | | | |
| Amudaryo | **5** | 2 | 3 |
| Beruniy | **10** | 5 | 5 |
| Boʻzatov | **7** | 7 | 0 |
| Qoraoʻzak | **11** | 7 | 4 |
| Kegeyli | **6** | 5 | 1 |
| Qoʻngʻirot | **11** | 8 | 3 |
| Qonlikoʻl | **7** | 3 | 4 |
| Moʻynoq | **37** | 24 | 13 |
| Nukus | **9** | 4 | 5 |
| Taxiatosh | **9** | 3 | 6 |
| Taxtakoʻpir | **4** | 2 | 2 |
| Toʻrtkoʻl | **7** | 5 | 2 |
| Xoʻjayli | **2** | 1 | 1 |
| Chimboy | **4** | 3 | 1 |
| Shumanay | **3** | 1 | 2 |
| Ellikqal'a | **6** | 3 | 3 |
| Nukus sh. | **43** | 21 | 22 |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat koʻrsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Nukus shahrida 43 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 23,8 %), Moʻynoq 37 ta (20,4 %), Qoraoʻzak va Qoʻngʻirotda 11 ta (6,1%), Beruniy 10 ta (5,5%), Nukus tumani va Taxiatosh tumanlarida 9 ta (5,0 %), Toʻrtkoʻl, Qonlikoʻl va Boʻzatovda 7 ta (3,9%), Kegeyli va Ellikqalʻa tumanlarida 6 ta (3,3 %) tashkil etadi.

# Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo‘yicha soni

*(2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)*




2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning, jami 26 711 ta soniga nisbatan hududlardagi ulushi, Nukus shahri (27,8 %), To‘rtko‘l (9,9 %), Beruniy (8,5 %), Amudaryo (7,6 %), Ellikqal'a (6,3 %), Qo‘ng‘irot (5,9 %), Xo‘jayli (5,3 %), Nukus (4,2 %), Chimboy (4,1 %), Kegeyli (3,2 %), Taxiatosh (3,2 %), Qorao‘zak, Mo‘ynoq va Qonliko‘lda (2,7 %), Shumanay tumanlarida (2,4 %), Taxtako‘pir (1,9 %) va Bo‘zatov (1,6%) tumanlari hissalariga to‘g‘ri keladi.

# Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo‘yicha soni

*(2022- yil yanvar- avgust oylarida, birlikda)*

2022- yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning, jami 2 754 ta soniga nisbatan hududlardagi ulushi Nukus shahrida (22,1 %), To‘rtko‘l (9,9 %), Beruniyda (8,9 %), Ellikqal'a (8,5 %), Amudaryo (8,1%), Qo‘ng‘irot (6,9%), Xo‘jayli (4,5 %), Kegeylida (4,1 %), Chimboy (4,0 %), Taxiatosh (3,5 %), Nukus (3,7 %), Taxtako‘pir (3,1 %), Qorao‘zak va Mo‘ynoqda (2,9 %), Qonliko‘l va Shumanayda (2,6 %), Bo‘zatov (1,7 %) tumanlari ulushiga tegishli.



## Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimidagi soni

*(2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)*




## Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

*(2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda)*




2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning, jami 16 038 ta soniga nisbatan hududlardagi ulushi, Nukus shahrida (32,4 %), To‘rtko‘l (10,0 %), Beruniy (7,5 %), Amudaryo (7,0 %), Qo‘ng‘irot (5,5 %), Xo‘jayli (5,5 %), Nukus (4,9 %), Ellikqal'a (4,5 %), Chimboy (4,3 %), Kegeylida (3,5 %), Mo‘ynoq (3,0 %), Qorao‘zak (2,9 %), Taxiatosh tumanida (2,5 %), Bo‘zatov (1,8 %), Qonliko‘l (1,7 %), Shumanay (1,6 %), Taxtako‘pir (1,4%) tumanlari hissasiga tegishli.

## Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** axborot-ma’lumotnoma turidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo‘lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta’minlaydi.

**Ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlar** ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrida mavjud bo‘lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar** ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275 - son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo‘mitasining **www.stat.uz** rasmiy saytida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.

**Statistik registrlarni yuritish bo‘limi**
**Tel.: 61 224-92-09**